

**ABDULLA QAHHORNING “TOMOSHABOG‘” HIKOYASIDA SHAXS
RUHIYATI VA IJTIMOY MUHIT TALQINI**

Husenova Shahribonu Fayzullo qizi

Buxoro davlat pedagogika institutii

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

E-mail: husenovashahribonu@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Tomoshabog‘” hikoyasi badiiy-estetik va psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sho‘ro davri o‘zbek hikoyachiligida inson ruhiyati, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlarning badiiy talqini masalasi yoritiladi. Asarning syujet-kompozitsion qurilishi, konflikt tizimi hamda qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalashda yozuvchining badiiy mahorati tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada Qahhor hikoyachiligiga xos realizm, psixologizm va hayotiylik tamoyillari “Tomoshabog‘” hikoyasi misolida ochib beriladi. Tadqiqot natijasida asarning o‘zbek hikoyachiligidagi o‘rni hamda inson ruhiyatini badiiy tasvirlashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar. *O‘zbek hikoyachiligi, sho‘ro davri adabiyoti, shaxs ruhiyati, badiiy talqin, realizm, psixologizm, tugun, turma, mirshab, ijtimoiy muhit.*

“THE INTERPRETATION OF INDIVIDUAL PSYCHOLOGY AND SOCIAL ENVIRONMENT IN ABDULLA QAHHOR’S SHORT STORY ‘TOMOSHABOG’”

Shahribonu Fayzullo qizi Husenova

Bukhara State Pedagogical Institute

Master’s Student, 1st Year, Department of Uzbek Language and Literature

E-mail: husenovashahribonu@gmail.com

Annotation. *This article analyzes Abdulla Qahhor’s short story “Tomoshabog‘” from artistic-aesthetic and psychological perspectives. The study examines the issue of the artistic interpretation of human psychology and the relationship between society and the individual in Uzbek short story writing of the Soviet period. The plot and compositional structure of the work, the system of conflict, as well as the writer’s artistic skill in expressing the inner experiences of the characters are analyzed. In addition, the principles of realism, psychologism, and lifelikeness characteristic of Qahhor’s storytelling are revealed through the example of the short story “Tomoshabog‘.” As a result of the research, the place of the work in Uzbek short story writing and its significance in the artistic depiction of human psychology are scientifically substantiated.*

Keywords. *Uzbek short story writing, Soviet period literature, human psychology, artistic interpretation, realism, psychologism, knot, prison, police officer, social environment.*

Хусенова Шахрибону Файзулло кизи

Бухарский государственный педагогический институт

Магистрант, 1-й курс, кафедра узбекского языка и литературы

E-mail: husenovashahribonu@gmail.com

Аннотация. *В данной статье рассказ Абдуллы Каххара «Томошабог» анализируется с художественно-эстетической и психологической точек зрения. В исследовании рассматривается проблема художественного осмысления человеческой психологии, а также взаимоотношений общества и личности в узбекской рассказистике советского периода. Анализируются сюжетно-композиционное построение произведения, система конфликта, а также художественное мастерство писателя в передаче внутренних переживаний героев. Кроме того, в статье на примере рассказа «Томошабог» раскрываются такие характерные черты прозы Каххара, как реализм, психологизм и жизненность. В результате исследования научно обосновывается место произведения в узбекской рассказистике, а также его значение в художественном изображении человеческой психологии.*

Ключевые слова. *Узбекская новеллистика, литература советского периода, психология личности, художественное осмысление, реализм, психологизм, завязка, тюрьма, миршаб, социальная среда.*

KIRISH

Hikoya– biror narsalarning og‘zaki tarzda bayon etilishi, nasriy yo‘lda yozilishiga aytiladi. Bilamizki sho‘rolar davriga kelib o‘zbek hikoyachiligida ham sotsial rializm mafkurasi ta’sir ko‘rsata boshladi. Adabiyotning istalgan janri davlat siyosatiga hizmat qilishi va yoritishi talab etilgan. Hikoyalarda ham kollektivlashtirish, ishchilar, tobe insonlar qiyofasi asosiy yaratilgan obrazlar bo‘lgan. Aynan sho‘rolar davrida hikoyanavislar tazyiqlarga, bosimlarga uchrashdi. O‘tmish voqealarini mahorat bilan aks ettira olgan ijodkorlarimizdan biri Abdulla Qahhor ham o‘sha davr muhiti, jamiyatdagi kishilar ruhiyati, muammolari, ichki kechinmalarini o‘z asarlarining markazida jamlay olgan. U xalqimizning XX asrdagi hayotini yoritib bergan, o‘z uslubiga ega, o‘tkir qalam egasidir. Abdulla Qahhor ijodining g‘oyaviy badiiy jihatlari va so‘z san’atkorligi haqida M.Sultonovning “Abdulla Qahhor uslubi”, M.Qo‘shjonov va U.Normatovning “Mahorat sirlari”, O.Sharafiddinovning “Abdulla Qahhor” kabi ko‘plab asarlar yozilgan. Shuningdek uning bir necha asarlari qatag‘onga uchragani haqida Ozod Sharafiddinovning “Ijodni anglash baxti” asarida keltirib o‘tilgan. Yozuvchi o‘z ijodiga talabchanlik bilan yondashadi, hayot haqiqatlarini, odamlarning xarakteri va aruhiyatini o‘rganadi. 30-yillarda yozgan hikoyalari o‘tmishdagi hayot haqidatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, bularga “O‘g‘ri”, “Millatchilar”, “Tomoshabog‘” kabi hikoyalari kiritsak bo‘ladi. Hikoyalaridagi maqsad esa bir – insonni ezgulik ruhida tarbiyalash bo‘lgan. Qahhor asarlarida syujet qisqa, xarakterlar yorqin va hayotiy

25-Aprel, 2026-yil

gavdalandiriladi. Hayot va o‘lim fonomeni uning hikoyalari zahirida turli insonlarning ruhiyatlarini orqali ochib beriladi. “Tomoshabog‘ ” hikoyasi ham yozuvchining uslubiga xos tugun tariqasida boshlanadi. Bu hikoyada “sartlar” o‘zbekning ijtimoiy holati, hayot qiymatini sho‘ro tuzumi belgilab berishi, beshikdan to qabirgacha bo‘lgan manzilini ko‘rsatganini ikki betning o‘zida yoritib bergan.

Tahlil va natijalar. “Tomoshabog‘” hikoyasi tugun bilan boshlanib, xulosa kitobxonning o‘ziga havola qilinishi bilan yakunlanadi. Oddiy xalqqa ruslar qaram, o‘z erkiga ega bo‘lmagan, eng past toifaga qaralgandek munosabatda bo‘lishadi. Hikoyada hayot ramziy obrazlarga bo‘lingan. Hamroqul hukumat tuzumiga qarshi chiqmaydigan, o‘ziga qilinayotgan adolatsizlikka javob qaytarmaydigan insonlarning biri sifatida ko‘rsatilgan. Bog‘bon obrazi orqali o‘z taqdiriga qiziqmaydigan, uqubatlarga dosh berishga majbur inson gavdalandirilgan. Asarda hayotning qiymati erkinlik, sog‘lom ruhiyat, mustaqil fikr sifatida ko‘ra olmagan jamiyat tomoshabin bo‘lib, yurtdoshining jamoat joyida mirshablar tmonidan olib ketilib, qamalishiga jimgina ko‘z yumib turgani uchun ham “Tomoshabog‘” deb nomlangan. Inson yashar ekan e‘tiborsizligi, loqaydligi tufayli mazmunsiz umr kechirishiga sababchi bo‘lib, hech narsaga erishmay hayotdan ko‘z yumishini guvohi bo‘lamiz. Odamlar shunchaki ko‘rgazma bo‘lib sho‘ro hukumatining ularni istaganicha yerga urishi, toifaga bo‘lishi, o‘limga hukm qilishini bir chetda kuzatib turishadi. Bejizga epigraf sifatida

“Ey bus-butun ayolati vayron o‘lon vatan,

Har go‘shasi zamonada zindon o‘lon vatan” misralari bilan boshlanmaydi.

O‘z yerida zindonda yashagandek, bir qul misoli munosabatda bo‘lingan o‘zbeklarning ayanchli hayotiga ishora berilgan. “Tomoshabog‘” hikoyasi hajv orqali jamiyatni uyg‘otishga qaratilgan muhim asar bo‘lib, bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Hamroqul “u nimani o‘ylasa, bu o‘yning oxiri xayolga ko‘tarilib ketadiz” degan jumlasini aslida hayotga ko‘tariladi degan ma‘noni bildirishini quyidagi jumladan anglasak bo‘ladi “dam soldirgani mahalla imomini chaqirtirsa , eshikdan lapanglab tobut kirib keladi” gapini ko‘rsak . Hayot shu darajada og‘irlashgan ediki istalgan joyda, istalgan mahalliy odamni mirshablar olib ketishi odatiy tusga kirganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Sizningcha Hamroqul nega qamaldi?, Qanday jinoyat sodir etgan edi?, O‘zi jinoyat qilgan edimi? U adolatsiz tuzumning yo‘rig‘idan bir oz chetlashgan edi, shuning o‘zi katta jinoyatemasmi? Usta kulolning o‘g‘li ham shu vajdan o‘limga yuz tutadi. Qahramonga “Rusiya to‘ralarining istirohatgohiga kirgan, ya‘ni nihoyatda beadablik qilgan” lik ayblovi qo‘yiladi. Ular uchun qaram davlat haq-huquqqa ega emas, aristokratlar yurgan yerda yurish muqarrar jazoga yo‘liqtirar edi. Aslida Hamroqul to‘satdan “Romanovskiy” bog‘iga kirib qoladi. Tizim buni tushunmaydi, tushunishni istamaydi. Buni Hamroqul bilgani uchun ham mirshabxonaga kirib ketishi oldidan xotiniga “Men bir turmadan ikkinchi turmaga o‘tayotibman, nega yig‘laysan?!”-deb aytadi. Birinchi qo‘llanilgan “turma” jumlasini hayot va undagi siyosiy tuzum, ozodligidan ayrilgan vatanga qiyoslasak bo‘ladi. Uning ruhiy holatini ichib mast bolganidan ham anglash qiyin emas, chin ma‘noda dunyoning qiyinchilik va azoblaridan toliqqan shaxs qiyofasi yaratilgan. Hech qanday noroziliksiz erksizlikka ko‘nikish esa buning naqadar ayanchli ekanini anglatadi. Hikoya “mirshabxonaga eshigi ochilib, ikki

oshnani yutdi. Butxona qo‘ng‘irog‘i kechki ibodatga chaqirib, og‘ir va uzun darangladi. Bu tovush hali kun botmasdan mudrab yotgan shahar ustida to‘lqinlanib, uzoqlarga ketdi.”- deb yakunlanishi, u yer ko‘plab insonlar uchun chiqib bo‘lmaydigan “maskanga” aylangani, tub axoli dini uchun mutlaqo teskari bo‘lgan butxona tasviri o‘quvchini fikrlashga va xulosa chiqarishga undaydi.

Xulosa. “Tomoshabog‘” hikoyasi orqali Abdulla Qahhor o‘zbek hikoyachiligida inson ruhiyatini tasvirlashning o‘ziga xos badiiy usullarini namoyon etadi. Asarda jamiyat hayotidagi ayrim illatlar, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar hamda shaxsning ichki kechinmalari realistik ruhda aks ettirilgan. Muallif voqealarni sodda va tabiiy tasvirlash orqali qahramonlarning ruhiy holatini, ularning hayotga bo‘lgan munosabatini chuqur ochib beradi.

Hikoyada badiiy detal, dialog va kinoyaviy tasvir vositalaridan samarali foydalanilishi muallif mahoratini ko‘rsatadi. Ayniqsa, qahramonlarning xatti-harakati va nutqi orqali inson ruhiyatidagi ziddiyatlar, jamiyatdagi ma’naviy muammolar ochib beriladi. Bu esa hikoyaning nafaqat ijtimoiy, balki psixologik mazmunini ham boyitadi.

Shuningdek, asarda tasvirlangan voqealar orqali insoniy fazilatlar, ma’naviy qadriyatlar va hayot haqiqatlari badiiy umumlashtirish darajasiga ko‘tarilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor. “Asror bobo” hikoyalar to‘plami. Toshkent. “Oltin qalam”2023.
- 2.Hotam Umurov. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. Toshkent. “Xalq merosi” 2004.
- 3.Saydulla Mirzayev. “XX asr o‘zbek adabiyoti”. Toshkent. “Yangi asr avlodi”.2005
- 4.Erjanova Nafisa. “Mustaqil ish”. Nukus.